

Andijon mashinasozlik instituti

Mashinasozlik texnologiyasi fakulteti

Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo'nalishi talabasi

Madaminova Shahloxon Sharifjon qizi

Tel. +998945185150

Email: shahlomadaminova84@gmail.com

Annotation: In the article, personal protective equipment, organization and distribution of personal protective equipment, selection of a helmet-mask and checking the suitability of a gas mask, simple respiratory protection equipment and respirators, a PTM-1 dust mask and cotton wool-gauze bandages are used in practice to develop skills in obtaining and using a personal first aid kit and an anti-chemical first aid kit.

Абстракт: В статье средства индивидуальной защиты, организация и распределение средств индивидуальной защиты, подбор каски-маски и проверка пригодности противогаза, простых средств защиты органов дыхания и респираторов, противопылевого противогаза ПТМ-1 и ваты. -марлевые бинты используются на практике для формирования навыков получения и использования личной аптечки и противохимической аптечки.

Annotatsiya: Maqolada shaxsiy himoya vositalari, shaxsiy himoya vositalarini tashkil qilish va uni tarqatish, Shlem-niqobni tanlash va protivogazning ishga yaroqligini tekshirish, nafas organlarini himoyalovchi oddiy vositalari va respiratorlar, PTM-1 changga qarshi gazlama niqobi va paxtadoka bog'ichlarni amalda qo'llay olishda ko'nikmalar hosil qilish va Kimyoviy moddalarga qarshi shaxsiy aptechka va paketdan foydalanish.

Key words: Protection, filter, insulation, solid, PTM-1, comprehensive protection, individual protection, filter.

Ключевые слова: Защита, фильтр, изоляция, сплошная, ПТМ-1, комплексная защита, индивидуальная защита, фильтр.

Kalit so‘zlar: Himoya, filtrlovchi, izolyatsiya, shixta, PTM-1, kompleks himoya, shaxsiy himoya, filtrlovchi.

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida” shuningdek, aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish maqsadida 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilingan.

Aholini yalpi qirg‘in quollaridan himoya qilish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlarning birortasi ham shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishni istisno qilmaydi.

Bu turga kiruvchi himoya vositalari odamni RM lar, ZM lar va BV lardan himoya qilish uchun ishlatiladi. O‘z vazifasiga ko‘ra ikkiga: nafas olish organlarini va terisini himoya qilish vositalariga bo‘linadi. Bundan tashqari filtrlovchi va izolyatsiya qiluvchi vositalarga ham bo‘linadi. Filtrlash tamoyili shundan iboratki, bunda inson organizmining hayotiy faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo‘lgan havo himoya vositalari orqali o‘tkazilganda tashqaridan kirgan ZM lardan tozalanadi, izolyatsiya qiluvchi tipdagi himoya vositalari odam organizmini tevarak-atrofdagi muhitdan batamom izolyatsiya qilib ajratib turadi.

Sanoat yo‘li bilan chiqarilgan (filtrlovchi va izolyatsiya qiluvchi) protivogaz va respiratorlar, shuningdek eng oddiy himoya vositalari (PTM-1), changga qarshi gazmol niqoblar hamda odatda aholining o‘z qo‘li bilan tayyorlanadigan paxtadoka bog‘ichlar odamning nafas olish organlarini himoya qilish vositalari hisoblanadi.

Filtrlovchi himoya kiyimi (ZFO) terini kompleks himoya kiluvchi vosita hisoblanadi.

Grajdan mudofazasining harbiylashtirilmagan tuzilmalari shaxsiy tarkibi shu vositalar bilan ko'proq tabel orqali (norma bilan) ta'minlanadi yoki tabeldagiga qo'shimcha bo'lib, almashtirilishi ham mumkin.

Shaxsiy himoya vositalarini hamisha tayyor holda saqlash kerak.

Dushman hujum xavfi tug`dirganda aholi shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanadi. GM ning shaxsiy tarkibi imkoniyati boricha ishchilar kolxozchilar va xizmatchilar himoya vositalarni o`z ob`ektlaridan olishadilar. Ob`ektlarda protivogazlar etishmasa ularning o`rniga changga qarshi paxta-doka bog`ichli niqoblardan, sanoatda ishlatiladigan protivogazlardan va raspiratorlardan foydalilanadi.

Qolgan aholi protivogazlarni qishloq sovetidan olishda yoki o`z qo`li bilan changga qarshi tayyorlanadigan gazmol niqoblar va boshqa eng oddiy nafas olish organlarini himoya qilish vositalaridan foydalilanadi.

**AHOLINI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN
HIMoya QILISH QONUN BILAN BELGILANDI**

Manba: O'RQ-790-son, 17.08.2022-y. @huquqiyaxborot

Qonunga ko'ra, favqulodda vaziyatlar ro'y berish manbaiga qarab quyidagi lara bo'lindi:

- Tabiiy xususiyatlari** favqulodda vaziyatlar
- Texnogen xususiyatlari** favqulodda vaziyatlar

Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Fuqarolarga favqulodda vaziyatlar zonalarda ishlaganligi uchun bepul tibbiy xizmat, kompensatsiyalar va boshqa imtiyozlar beriladi.

PROGNOZ QILINGAN YOKI RO'Y BERGAN FAVQULODDA VAZIYATNING KO'LAMI VA HOLATIGA QARAB MUAYYAN HUDDUDA FAVQULODDA VAZIYATLAR DAVLAT TIZIMINING QUYIDAGI REJIMLARI O'RNLATILADI:

- Kundalik rejim – muayyan hududda, obyektda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi mavjud bo'lganida
- Yuqori tayyorgarlik rejimi – favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi mavjud bo'lganda
- Favqulodda vaziyat rejimi – favqulodda vaziyatlar ro'y berganda va favqulodda vaziyatlar davrida.

1-rasm

Odam terisini himoya qilish uchun nakidka - yoping`ich, plashlar, rezinkali poyafzal, rezinkali yoki charmli qo`lqoplar tayyorlanadi. Shaxsiy himoya vositalarini ishxonada yoki shunga yaqinroq joyda saqlash kerak.


Nafas olish organlarini himoya qilish vositalari. Protivogazlar odamlarning nafas olish organlarini himoya qilishining eng ishonchli vositasi

hisoblanadi. Ular nafas organlari, ko`z va yuzni PM lar, ZMlardan hamda BV lardan (kasallantiruvchi mikroblardan va toksinlardan) yaxshi himoyalaydi.

Filtrlovchi protivogazlar. Filtrlovchi protivogazni kiygan odam tashqaridagi havoni tozalanganidan nafas oladi. Asosiy filtrlovchi protivogazlarga GP-5 (2- rasm), GP-5M, GP-4U (3- rasm). Grajdalar protivogazlari; DP-6, DP-6M, PDF-7, PDF-D, PDF-SH bolalar protivogazlari va bolalar himoya kamerasi (KZD-4) kiradi.


Filtrlovchi protivogazlarning asosiy ishlash tamoyillari nafas oladigan havoni zararli aralashmadan tozalashdir.

Filtrlovchi protivogaz filtrlovchi chang yutuvchi qutichada va yuz qismidan iborat bo`ladi. Bundan tashqari protivogaz jamlamasiga protivogaz uchun sumka va ichiga terlamaydigan pylonka yoki maxsus “qalam” solingan quticha ham kiradi. Undan protigaz yuz qismidagi ko`zoynak shishalarini terlashdan saqlash uchun foydalaniadi.



2- rasm. GP-5 protivogazi:

a- shlem niqob; b- protivogaz qutichasi; v- terlamaydigan pylonkalar solingan quticha; g- protivogaz sumkasi.



3- rasm. GP-4u protivogazi:

1- niqob; 2- ko`zoynak; 3- tasmalar; 4- klapanlar qo`tachasi; 5- birlashtiruvchi trubka; 6- protivogaz qutichasi; 7- protivogaz sumkasi.

SHlem-niqob uchun zarur o`lchami (sm)		SHlem-niqobining zarur o`lchami
membranasiz	membranali	
63 gacha	61 gacha	0
63,5 dan 65,5 gacha	61 dan 64 gacha	1
66 dan 68 gacha	64,5 dan 67 gacha	2
68,5 dan 70,5 gacha	67,5 va yuqori	3
71 va yuqori		4



GP-5 protivogaz yuz qismini to`g`ri tanlash uchun odam yuzini o`lchash

GP-5 va *GP-M* protivogazlarni filtrlovchi - chang yutuvchi kichik hajmli (*GL-5M* tipdagn) korobka - quticha va yuz qismi sifatida SHlem-niqob bilan jamlamalashtiriladi. *GP-5M* protivogazining jamlamasiga membrana qutichasi SHlem-niqob (qutichaga so`zlashuv qurilmasi) joylashtirladi.

GP-4u protvogazi katta hajmdagi filtrlovchi-chang yutuvchi quticha hamda yuz qismi sifatida birlashtiruvchi naychali niqob bilan jamlamalashtirilgan.

Filtrlovchi - chang yutuvchi protivogaz qutichasi ichiga olinayotgan havoni radioaktiv, ZM lar va bakterial vositalardan tozalash uchun xizmat qiladi. U (kichik yoki katta) tsilindr dan iborat bo`lib, tsilindr ichiga havo oqimi bo`ylab aerozolga qarshi filtr hamda (maxsus ishlov berib aktivlashtirilgan ko`mir solingan) yutqich bilan ta`min etilgan. Bu yutqichni ko`pincha shixta deb atashadi. Aerozolga qarshi filtrda har qanday aerozollar - radioaktiv chang, ZM larning to`tun va tumanlari hamda bakterial aerozollar ushlanib qoladi. Shixta ZM larning bug` va gazlarini ushlab qoladi. Filtrlovchi yutqich qutisining tagida nafas olinadigan havo kirishi uchun yumaloq teshikcha bo`ladi; tozalangan havo quticha qopqog`iga burab o`rnashtirilgan naycha orqali o`tib keladi. Protivogazning gaz qismi (SHlem-niqob yoki niqob) protivogaz qutisidagi filtr-yutqichda tozalangan havoni nafas olish organlariga etkazish uchun, shuningdek yuz va ko`zni radioaktiv, ZM va bakterial vositalar tushishidan himoya qilish uchun mo`ljallangandir. SHlem-niqob (niqob) rezinadan tayyorланади; uning ikkita

ko`zoynak o`zeli, obtekatellari va klapan qopqoq qutichasi bo`ladi, niqobda esa bundan tashqari uni odamning boshiga kiygizib qo`yiladigan tasmalari ham bor. Ko`zoynak uzeli kuzatish oynagidan, ichki va tashqi oboymalardan iborat bo`ladi. Bu oboymalar bilan oynak SHlem-nikob (niqob) korpusiga mustahkamlanadi. Bundan tashqari terlamaydigan plyonkani mustahkamlash uchun xizmat qiladigan qisqich halqa ham ko`zoynak uzeli tarkibiga kiradi. Obtekatellarning vazifasi nafas olganda keladigan nisbatan sovuqroq havoni bevosita ko`zoynak uzelining oynalariga etkazib berishdan iborat bo`lib, mana shu tufayli oynaklarning terlash darajasi ancha pasayadi.

Klapanli korobka-quticha nafas olganda va nafas chiqargan vaqtdagi havo oqimini taqsimlash uchun xizmat qiladi. Uning ichida nafas olish klapani va ikkita - asosiy qo`shimcha nafas chiqarish klapanlari bo`ladi. Niqobning boshga kiygiziladigan qismi esa tasmalar tizimidan iborat bo`ladi. SHlem-niqoblar 5 xil o`lchamda (membranalı korobka bilan 4 xil o`lchamda), nikoblar esa 3 xil o`lchamda chiqariladi. Ularning nomerlari niqob va SHlem-niqobning engak qismiga raqam bilan yozib qo`yiladi.

SHlem-niqob protivogazning filtrlovchi-yutqich qutichasi bilan vintli patrubka orqali birlashtiriladi. Patrubka o`z navbatida klapan qutichasiga mustahkamlangan bo`ladi. SHuningdek SHlem-niqob protivogazning filtrlovchi-yutqichi bilan yana filtrlovchi-chang yutuvchi qutining qopqog`iga burab o`rnatilgan naycha orqali ham birlashtirilgan bo`ladi. Niqob filtrlovchi - chang yutuvchi quticha bilan birlashtiruvchi trubka orqali birlashtiriladi.

Niqobdagagi birlashtiruvchi trubka bir uchi maska-niqobining klapan korobkasidagi patrubkaga zinch qilib o`rnatilgan bo`ladi, ikkinchi uchida esa ko`chma gayka bo`lib, uning yordamida filtrlovchi chang yutuvchi qutining og`zi bilan birlashtiriladi. Sumka protivogazni saqlash va uni yonida olib yurish uchun xizmat qiladi. Olib yurishga qulay bo`lishi uchun unga elkaga osadigan osgich (tasma) tikilgan bo`ladi. Tasmaning uzunligini surilma to`qa (halqa) yordamida muvofiqlashtirish mumkin. Bundan tashqari sumkaga yana belga taqiladigan tasma ham o`rnatilgan bo`ladi.

Shlem-niqobni tanlash va protivogazning ishga yaroqligini tekshirish.

Ishga yaroqli, to`g`ri tanlangan SHlem-niqob (niqob) odamni ishonchli himoya qiladi.

SHlem-nikobnnng SHI-41, SHI-41 M protivogazning G-5 zarur o`lchami - rostini tanlash uchun boshni aylanma chiziq bo`ylab o`lchash lozim. Bu chiziq boshning eng yuqori qismidan, jag`dan va iyakdan o`tishi lozim (4-rasm, jadval).

GP-5 protivogaz, shlem-niqobining zarur o`lchami-bo`yini tanlash.

Respirator R-2 GM tizimida ko`proq qo`llaniladi. Respiratorlar nafas organlarini radioaktiv changdan, havodagi chang-to`zondan himoya qilishda hamda bakterial vositalarning qayta hosil bo`lgan bulo`tlari ichida harakat qilgan vaqtida foydalaniladi. Respiratorlar ZM lardan odamni himoya qilolmaydi. R-2 respiratori filtrlovchi yarim niqobdan iborat bo`lib, unda nafas oladigan ikkita klapan, bitta (predoxranitelli ekrani bilan) nafas chiqarish klapani, boshga taqiladigan elastik va cho`zilmaydigan tasmalari hamda buringa o`rnashtirish qisqichi bo`ladi.

Odamning nafas olish organlarini RM lardan himoya qilish uchun hamda BV larning takroriy bulo`ti hosil bo`lgan joylarda harakat qilish vaqtida taqish uchun qo`llanilishi mumkin. YUqorida ta`kidlab o`tilganidek bunday vositalarni ko`proq aholining o`zi tayyorlaydi. Biroq ular odamlarni ZM lardan himoya qilolmaydi. Gazlama niqob ikki asosiy qism korpus va mustahkamlovchi qismlardan iborat. Korpus turt-besh qavatli gazmoldan tayyorlangan. Unda ko`rish uchun teshiklar qilingan bo`lib, unga oyna ko`yiladi Niqobning boshga zich kiyilishi rezina tasma yordamida ta`min etiladi. Bu tasma yuqoridagi uloqqa va pastki mustahkamlash chokiga qo`shib tiqilgan tugunga o`rnataladi. Niqobni bevosita ishchi, kolxozchi, xizmatchi, o`quvchi ham tayyorlashi mumknn.

Niqobni tayyorlashda maxsus istruktsiyadan foydalanib, uning qismlari o`lchamlarga qarab bichiladi. Niqob etti xil o`lchamda tayyorlanadi. Yuz uzunligi 80 mm gacha bo`lsa, birinchi o`lchamli niqob tayyorlanadi; yuz uzunligi 81 dan 90 mm gacha bo`lsa, ikkinchi; 91 dan 100 mm gacha bo`lsa, uchinchi; 101 dan 110 mm gacha bo`lsa, to`rtinchi; 111 dan 120 mm gacha bo`lsa, beshinchi; 121 dan 130 mm gacha bo`lsa oltinchi va 131 mm va undan ortiq bo`lsa - ettinchi o`lchamli niqoblar tayyorlanadi.

Aptechka jarohatlangan odamning o`ziga va boshqalarga yordam berishi (og`riqni bostirish) uchun hamda XM lar, ZM lar, BV lar va RM lar bilan zaharlanishning oldini olish yoki ularning ta`sirini susaytirish uchun mo`ljallangan.

Aptechkadagi № 1 uyasidagi shprits-tyubik ichida og`riq koldiruvchi suyuqlik bo`lib, u suyak singan hollarda, badanning katta qismi jarohatlangan va kuygan taqdirda ishlatiladi. Buning uchun aptechkadan shprits-tyubikni chiqarib oling. Chap qo`l bilan tyubikning qirrali gardishidan, o`ng qo`l bilan uning korpusidan ushlab, soat strelkasi yo`nalishida, chaqqonlik bilan to taqalguncha burang. SHpritsning ignasini bekitib turgan qalpoqchani oling va ignaning uchini yuqoringa qaratib turgan holda ichidagi havoni chiqarib yuboring, igna uchidan suyuqlik tomchilari chiqqa boshlagandan keyin ignaga qo`l tegizmasdan turib uning uchini son yoki qo`lning yumshoq to`qimasiga sangchingda shprits-tyubikni siqib ichidagi suyuqliknini to`qimaga yuboring. Barmoqlarni yozmasdan turib ignani chiqarib oling. SHoshilinch hollarda kiyim ustidan ukol qilsa ham bo`ladi.

Xulosa: Favqulodda vaziyat (FV) - bu muayyan xududda o'zidan so'ng odamlarning qurbon bo'lishi, odamlar sog'ligi yoki atrof-muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo`lgan yoki olib kelgan halokat, stixiyali falokat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan holatdir.

Shu bilan birga, amaldagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimi faoliyatining tahlili mamlakat aholisi va hududlarini tabiiy ofatlar, texnogen avariya va halokatlardan muhofaza qilishga salbiy ta'sir ko`rsatayotgan bir qator muammoli masalalar mavjudligini ko`rsatmoqda.

Xususan, favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlash tizimini yanada modernizatsiya qilish talab etiladi. Ushbu tizim bugungi kunda xavfli gidrometeorologik holatlarning mavjud xavf-xatarlarini hamda ular yuz berganda harakat qilish mexanizmlarini manzilli aniqlash imkonini bermaydi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent: «O‘zbekiston». 1998. 684b
2. To‘htaev A. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari. Toshkent: «Mehnat» 1994. 34 b.
3. Ilyosova Z.F. «Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari». Toshkent: «Mehnat». 2001. 98 b.
4. Nurxo‘jaev A.K., Yunusov M.Yu., Xabibullaev I.X. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirdari. Toshkent: «Universitet». 2001. 67 b.
5. Belov S.V., Devisilov V.A. i dr. Bezopasnost jiznedeyatelnosti. Moskva: «MGU». 2003. 360 s.
6. Farmonov A.E., Igamberdiev A.R. va boshq. Hayot faoliyati xavfsizligi. Toshkent: «Universitet». 2006. 96 b.